INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://science-research.org.uz/index.php/ITSE

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHDA XALQARO QONUNCHILIK VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGINING MUTANOSIBLIGI

Otanazarov Kamronbek A'zambek o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti, Yurisprudensiya yo'nalishi,
2-kurs, 247-guruh talabasi
kamronbekotanazarov7@gmail.com
+998770256844

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro huquq me'yorlari va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, ularning uyg'unligi hamda amaliyotdagi muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqaro hujjatlarning O'zbekiston huquq tizimiga implementatsiyasi, milliy qonunlarning xalqaro standartlarga mosligi va inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining samaradorligi o'rganiladi. Metodologiya sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil qo'llaniladi. Tahlil natijalari asosida qonun hujjatlarini amaliy tatbiq etish bo'yicha aniq takliflar ilgari suriladi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llariga oid ilmiy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, BMT, xalqaro hujjat, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, implementatsiya, xalqaro andozalar (standartlar), huquqiy islohatlar, O'zbekiston.

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь норм международного права и национального законодательства Республики Узбекистан в обеспечении прав человека, их согласованность и практические проблемы. В исследовании рассматриваются вопросы имплементации международных договоров в правовую систему Узбекистана, соответствие национального законодательства международным стандартам, а также эффективность механизмов защиты прав человека. В качестве методологии исследования использовался сравнительно-правовой анализ. По результатам анализа разрабатываются конкретные предложения по практической реализации законодательных актов. Также вносятся научные предложения относительно существующих проблем и путей их решения.

Ключевые слова: Права человека, ООН, международный документ, международное право, национальное законодательство, имплементация, международные стандарты, правовые реформы, Узбекистан.

Annotation: This article analyzes the interrelationship between international legal norms and the national legislation of the Republic of Uzbekistan in ensuring human rights, their coherence, and practical problems. The study examines the implementation of international instruments into the legal system of Uzbekistan, the compliance of national laws with international standards, and the effectiveness of human rights protection mechanisms. Comparative legal analysis was used as a methodology. Based on the results of the analysis, specific proposals are put forward for the practical implementation of legislative acts. Also, scientific proposals are put forward regarding existing problems and ways to solve them.

Keywords: Human rights, UN, international document, international law, national legislation, implementation, international standards, legal reforms, Uzbekistan.

Kirish: Ma'lumki inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bugungi globallashgan davrda har bir davlat uchun ustuvor masala hisoblanadi. Chunki

inson huquqi bo'yicha xalqaro andozalar inson huquqini xalqaro va milliy darajada himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.[1] Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida inson huquqi muhim ahamiyat kasb etib, u shu jamiyatning demokratik taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi.[2] Inson huquqi bilan bog'liq vujudga kelgan va vujudga kelishi mumkin bo'lgan munosabatlarning aksariyat qismini inson huquqi qonunchilik tarmog'i tartibga soladi. Keyingi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy asoslarini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka joriy etish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda inson huquqlariga oid 70 dan ortiq ko'p tomonlama shartnomalarga qo'shilgan. Bundan tashqari BMT tomonidan ushbu sohada qilingan 10 ta asosiy xalqaro shartnoma ishtirokchisiga aylangan.[3]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Xalqaro huquq me'yorlari, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948), "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966), "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966), "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt"ning Fakultativ protokoli, "Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi" konvensiya (1948), "Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi" konvensiya (1965), "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi" (1979), "Bola huquqlari to'g'risidagi" konvensiya (1989), inson huquqlarining eng muhim xalqaro asoslarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro hujjatlarning aksariyatini ratifikatsiya qilgan holda, ularni milliy qonunchilik tizimiga tatbiq etish borasida izchil ishlar olib bormoqda. Bundan tashqari, xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, A. Saidov, N. Qodirov, M. Shermuhamedova kabi olimlar O'zbekistonda inson huquqlarini himoyasining huquqiy asoslari va xalqaro standartlar bilan uyg'unligini o'rganganlar. Xalqaro miqyosda esa E. Risse, J. Donnelli va L. Henkinlar inson huquqlarining universalligi hamda ularni milliy tizimlarda amalga oshirish mexanizmlarini yoritgan.[4] Biroq O'zbekiston sharoitida xalqaro huquq normalarining milliy qonunlarga implementatsiya jarayonining tahliliy o'rganilishi hanuz yetarli emas.

Tadqiqot metodologiyasi: Metodologik asos sifatida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, huquqiy model yaratish va ilmiy umumlashtirish usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar manbai sifatida BMT hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident farmonlari, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlarning hujjatlari asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar: Shuni aytishimiz joizki, bugunki kunda inson huquqi bo'yicha 500 dan ortiq xalqaro hujjatlar mavjud bo'lib, unda xalqaro andoza (standart) lar belgilab qo'yilgan. Ma'lumki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi majburiy yuridik kuchga ega bo'lmasa ham, ammo unda mustahkamlangan talablar, tamoyillar va qoidalar inson huquqi andozalari (standartlari) ning yorqin namunasi hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan talablar, tamoyillar va normalar andoza (standart) sifatida inson huquqi bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlarni va milliy qonun hujjatlarini shakllantirishda asos rolini o'ynaydi. Sababi bu deklaratsiya Ikkinchi Jahon urushidan so'ng inson huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida tuzilgan birinchi xalqaro hujjat. Bu hujjat 1948-yil, 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o'rnatilgan 30 ta normaning barchasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bo'limida joy olgan. Inson va fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari asosiy qomusimizning o'zagini tashkil etib, ularning barchasi bugungi kunda ijtimoiy hayotda to'la o'z ifodasini topgan. Chunonchi Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng

[1] Rustambayev M.X. va boshq. *Inson huquqi: Darslik.* – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2023. 93-94.
[2] Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt; Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1966.
[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 5-may, PF–5434-son.
[4] Risse T., Donnelly J., Henkin L. "Human Rights in Global Politics". – Oxford: OUP, 2020.

bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak deyilgan.[5] Bu norma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida keltirilib o'tilgan. Bundan tashqari Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur deb belgilangan[6] va bu norma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida qayd qilib qo'yilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir, mazmunidagi qoida joy oigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir, deb belgilangan va hokazo.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishda hali yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Misol uchun inson huquqlarini himoya qilivchi xalqaro vakil Ombudsman bilan O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilivchi Ombudsmanning farqi ancha katta farqi bor ya'ni ularning vakolatlari, huquqlari xalqaro Ombudsmanga qaraganda ancha kamroq va sustroq. Undan tashqari ba'zi hollarda sud-huquq tizimida sudyalarning qarorlari va hukmlari milliy va xalqaro hujjatlarda belgilangan normalarga zid. Buning asosiy sabablaridan biri qonunchilikda tavofut bo'lishi va qonun hujjatlariga to'liq tayanmasligini aytishimiz mumkin. Ko'p hollarda insonlar o'z huquqlari buzilsa qayerga va qay tartibda murojaat qilishni bilmaydilar. Ayrim hollarda ularning huquqlari huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan to'liq ta'minlanmaydi yoki sudgacha yetib bormaydi. Sudlar xalqaro huquq normalaridan kam foydalanishining sababi — sudyalar uchun xalqaro huquq bo'yicha malaka oshirish tizimining yetarli yo'lga qo'yilmagani, xalqaro shartnomalar milliy qonunlarda to'liq implementatsiya qilinmagani bilan bog'liq. Bir necha hollarda kerak bo'lsa insonlar huquqlarini himoya qilish uchun barcha ichki choralardan foydalanadilar. Ammo ular keyin ular o'zlarining huquqlarini himoya qilish uchun tashqi vositalardan foydalanmoqchi bo'lganlarida qachon, qay usulda va qayerga borib murojaat qilishni bilmaydilar. Bu esa ularni nafaqat o'z davlatlari balki chet elda ham buni imkonsizligini go'yoki his qilishadi va bu kelakajda o'z ta'sirini yomon ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda bu davlatning o'zining fuqarosi u haqida yomon fikrlay boshlaydi. Jumladan, inson huquqlarini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik mexanizmlari amaliyotda sust ishlamoqda, sud qarorlarida xalqaro huquq normalaridan foydalanish darajasi past.

Xulosa va takliflar: Inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka to'liq implementatsiya qilish hamda O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarini izchil bajarish maqsadida quyidagi xulosalar va takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari sohasida 70 dan ortiq xalqaro shartnomalarga qo'shilgan bo'lsa-da, ushbu hujjatlarda nazarda tutilgan normalarni amaliyotda qo'llash darajasini yanada oshirish zarur. Shu maqsadda, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari asosida milliy harakat dasturlari ("yo'l xaritalari") ishlab chiqilishi va ularning ijrosi muntazam monitoring qilib borilishi lozim. Ikkinchidan, sud-huquq tizimida xalqaro huquq me'yorlarining qo'llanilishi pastligicha qolmoqda. Shu bois, sudyalar va huquqni muhofaza qilish organ xodimlari uchun xalqaro huquq bo'yicha majburiy malaka oshirish kurslarini joriy etish**,** shuningdek, oliy yuridik ta'lim muassasalarida "Xalqaro inson huquqi" fanini chuqurlashtirilgan shaklda o'qitish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, inson huquqlarini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish uchun "Inson huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik to'g'risida" alohida qonun qabul qilish taklif etiladi. Bu, o'z navbatida, javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini amalda mustahkamlashga xizmat qiladi. To'rtinchidan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish — inson huquqlarini ta'minlashning eng

[5] *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.* Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1948-yil 10-dekabr. – 1-modda.
[6] *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.* Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1948-yil 10-dekabr. – 2-modda.

muhim shartidir. Shu nuqtai nazardan, davlat organlari, OAV va nodavlat tashkilotlar hamkorligida “Inson huquqlari haftaligi” kabi ma’rifiy dasturlarni yo‘lga qo‘yish zarur. Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman)ning vakolatlarini kengaytirish, unga xalqaro ombudsmanlar tarmog‘i bilan bevosita hamkorlik qilish huquqini berish inson huquqlarining xalqaro kafolat darajasini oshiradi. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi inson huquqlari sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqadi va O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rustambayev M.X. va boshq. *Inson huquqi: Darslik.* – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 5-may, PF–5434-son. https://lex.uz/docs/-4875627
3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt; Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1966.
4. Risse T., Donnelly J., Henkin L. “Human Rights in Global Politics”. – Oxford: OUP, 2020.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi, 217 A (III) rezolyutsiyasi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, (1-2-3 - moddalar) https://constitution.uz/oz/pages/humanrights (1948).
6. O‘zbekiston Respublika Konstitutsiyasi. Yangi tahrirlangan. (2023) (13-19-25 - moddalar) https://lex.uz/docs/-6445145
7. Saidov A. “Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari”. –Toshkent: TDYUI, 2019.